



Characteristics of the particles “inna va axovatuha” in Arabic

Abdulaziz RUSTAMOV¹

Tashkent State University of Oriental Studies

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

Keywords:

nominal sentence

(الجملة الاسمية),

subject (المبتدأ),

predicate (الخبر),

accusative case (النصب),

particle (الحرف).

ABSTRACT

In the field of Arabic linguistics, the issues of the accusative case in nouns and its expression through particles are very briefly addressed in Uzbek-language literature and sources. The aim of this research is to identify and analyze the semantic features and syntactic functions of auxiliary particles in the Arabic literary language that “influence the subject”. This article examines the grammatical characteristics of the emphatic particles in Arabic known as “inna wa akhawātuha” (وَأَخَوَاتُهَا إِنَّ), their syntactic functions within sentence structure, and their semantic implications. Additionally, it analyzes the role of these particles in nominal sentences, their impact on the relationship between the subject and the predicate, their structural transformations, and the contexts in which they are used, supported by scholarly commentary. The article will be useful for researchers of Arabic grammar and students who are deeply studying the Arabic language.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp435-444>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Arab tilida “inna va axovatuha” harflarining xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

isimiy jumla (الجملة الاسمية),

ega (المبتدأ),

kesim (الخبر),

tushum kelishigi (النصب),

yuklama (الحرف).

Arab tilshunosligi sohasida oʻzbek tilidagi adabiyotlarda va manbalarda otlardagi tushum kelishigi va uning yuklamalar yordamida ifodalanishi masalalari juda qisqa yoritilgan. Mazkur tadqiqot ishining maqsadi arab adabiy tilida yordamchi soʻz turkumiga oid “egaga taʼsir qiluvchi” yuklamalarning semantik xosliklari va sintaktik vazifalarini aniqlab, ularni tahlil qilish kabi masalalardan iborat. Ushbu maqolada arab tilidagi “inna va

¹ Senior Lecturer, Higher School of Arabic Studies, Tashkent State University of Oriental Studies.
E-mail: rustamovabdulaziz161@gmail.com

axovātuha” (إِنَّ وَأَخَوَاتُهَا) deb nomlanuvchi ta’kidlovchi harflarning grammatik xususiyatlari, ularning gap tarkibida bajaradigan sintaktik funksiyalari hamda semantik yuklamalari o’rganiladi. Shuningdek, ushbu harflarning ismiy jumladagi o’rni, ot va xabar o’rtasidagi munosabatlarga ta’siri, ularning tarkibiy o’zgarishlari va ilmiy izohlar bilan ishlatilish holatlari tahlil qilinadi. Maqola arab grammatikasi bilan shug’ullanuvchi tadqiqotchilar va arab tilini chuqur o’rganayotgan talabalar uchun foydalidir.

Особенности частиц «инна ва аховатуха» в арабском языке

Ключевые слова:

именное предложение
(الجملة الاسمية),
подлежащее (المبتدأ),
сказуемое (الخبر),
винительный падеж
(النصب),
частица (الحرف).

АННОТАЦИЯ

В литературе и источниках (на узбекском языке) по арабскому языкознанию вопросы винительного падежа у имён и его выражения с помощью частиц освещены крайне слабо. Цель настоящего исследования заключается в выявлении и анализе семантических особенностей и синтаксических функций частиц, относящихся к служебным частям речи в арабском литературном языке, которые «влияют на подлежащее». В данной статье рассматриваются грамматические особенности усиливающих частиц арабского языка, известных как «Инна ва аховатуха» (إِنَّ وَأَخَوَاتُهَا), их синтаксические функции в структуре предложения, а также их семантическая нагрузка. Кроме того, анализируется роль этих частиц в именном предложении, их влияние на отношения между подлежащим и сказуемым, структурные изменения и случаи употребления с научными комментариями. Статья будет полезна для исследователей арабской грамматики и студентов, углублённо изучающих арабский язык.

KIRISH

Ma'lumki arab, o'zbek va rus tillarida turlanish hodisasi birdek mavjud. Qizig'i shundaki, bu hodisa har uch tilda ham ism so'z turkumida uchraydi. Bunda ismlar kelishiklar yordamida turlanadi. O'zbek va rus tillarida otlar olti kelishikda turlanadi. Lekin bu tillardan farqli ravishda arab tilidagi ismlarning turlanishi faqatgina uch kelishik bilangina bo'ladi. Ular bosh kelishik (الرَّفْعُ), tushum kelishigi (النَّصْبُ), qaratqich kelishigi (الْجُرْ)dir. Arab tilidagi "ismlarning nasb holati" (مَنْصِبَاتُ الْأَسْمَاءِ) nomli ibora uning tushum kelishigi (النَّصْبُ)da kelayotganini bildiradi.

Yana bir farqli jihati arab tilida kelishiklarning ma'lum qo'shimchalari yo'q. Lekin uning qaysi kelishikda ekanligi so'z oxiridagi harfning harakatiga va ularning gapdagi vazifasiga qarab bilish mumkin.

O'zbek tilida gapning egasi har doim bosh kelishikda keladi. Lekin arab tilida shunday yuklamalar mavjudki, ularning ta'sirida ega tushum kelishigida kelishi shart bo'ladi. Ushbu maqolada "inna va axovātuha" harflarning grammatik, sintaktik va semantik funksiyalari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Arab tilida egaga ta'sir qiluvchi "inna va axovātuha" yuklamalari oltita:

إِنَّ، أَنْ، كَانَ، لَكِنَّ، لَيْتَ، لَعَلَّ.

Bu yuklamalar quyidagicha nomlanadi:

1. Fe'lga o'xshash yuklamalar الحروف المشبهة بالأفعال
2. Jumlagaga ta'sir etuvchi yuklamalar الحروف العاملة في الجملة
3. Eganing xususiyatini yo'qotuvchi نواسخ الابتداء

Bu yuklamalar egaga faqat undan oldin kelgandagina ta'sir qiladilar. Bu gap ikki qismdan ega va kesimdan iborat bo'ladi.

1. Ega tushum kelishigida bo'lib u إِنَّ ning ismi deb nomlanadi.

2. Kesim bosh kelishigida kelib, إِنَّ ning xabari deb nomlanadi. Masalan: *Haqiqatdan Olloh mehribondir. إِنَّ الله رحيمٌ*

Go'yoki ilm nurdur. كَانَ العلم نورٌ

Bu bobda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi.

1. Fe'lga o'xshash harflarning ma'nolari.

"إِنَّ" ta'kid ma'nosida. Egani kesimdagi sifat bilan ta'kidlash.

كَاف ta'kidlovchi tashbeh o'xshatish ma'nosi aslida إِنَّ ta'kid yuklamasi bilan كاف tashbex yuklamasi qo'shib tuzilgan. إِنَّ ta'kid yuklamasi oldidan كاف old qo'shimchasini qo'shib nutqda oson bo'lishi uchun إِنَّ dagi hamzani َ ga aylantirgan, ular birgalikda ajralmas-o'xshatish yuklamasiga aylandi.

"زَيْدٌ شَجَاعٌ، وَلَكِنَّهُ بَخِيلٌ" ta'kid va tuzatish ma'nosida.

Bu yerda sahiylik ham shijoatga xos xususiyatlardan bo'lgani uchun. زَيْدٌ شَجَاعٌ jumlasini eshitgan kishi uni sahiy deb ham o'ylashi mumkin. Shu gumonni ketkazib tuzatish, ajratish uchun بَخِيلٌ jumlasini qo'shimcha qilindi. Ko'rib turganimizdek bu yerda لَكِنَّ yuklamasi ma'noga tuzatish kirityapti لَكِنَّ ning ta'kid ekaniga misol:

لو جاءني خليلٌ لأكرمته، لكنه لم يجيء

Do'stim kelsa unga izzat ikrom ko'rsataman, lekin u kelmadi.

deb. لكنه لم يجيء deganda uning kelmagani tushiniladi. Natijada لَكِنَّ aytilishlik uning kelmaganini ta'kidlagan.

لَيْتَ ning ma'nosi orzu bo'lib, umid qilib bo'lmaydigan narsani istashlikdir. Masalan:

أَلَا لَيْتَ الشَّبَابَ يَغُودُ يَوْمَ فَأُخْبِرُهُ بِهَا فَعَلَ الْمَشَّ

Eh qaniydi, yoshlik biror kuni qaytib qolib unga qarichilikda ne qilganim so'zlab bersam.

لَيْتَ لِي أَلْفَ دِينَارٍ – *Qaniydi 1000 dinorim bo'lsaydi.*

Ba'zan bo'lishi mumkin bo'lgan ishda ham qo'llaniladi. Bu juda oz uchraydi لَيْتَكَ تَذْهَبَ – *Qaniydi ketsang.*

لَعَلَّ ning ma'nosi umid va xavotirlanish, rahm-shavqat. Masalan:

لَعَلَّ الصَّدِيقَ قَادِمٌ – *Ehtimol do'stim kelar.*

Bu yoqimsiz narsani sodir bo'lishini yomon ko'rish(yoki xazar qilish)

لَعَلَّ الْمَرِيضَ هَالِكٌ – *Ehtimol kasal bo'lib qolar.*

لَعَلَّ so'zi faqat mumkin bo'lgan narsalarda ishlatiladi.

Ba'zan sababni ifodalovchi "(uchun)ma'nosida ham keladi. Masalan:

إِبْعَثْ إِلَيَّ بَدَائِكَ، لَعَلِّي أُرْكِبُهَا – *Menga ulovini yubor qani balki minarman.*

Ya'ni minishim uchun bu bizni o'zbek tilida ham bor bo'lib, masalan:

Ahmad aytyapti: Karimga pul bergani bilan koshkiydi bozorga borib aytganlarimizni olib kelsa, Karim shunday javob qilyapti oldin pulni ber qani balki borarman ya'ni, Karim aytmoqchiki kinoya qilib pulni bersa borishni aytmoqchi. Bundan borishim uchun pulni ber ma'nosi kelib chiqadi. Bunga Qur'ondan misollar bor.

{لَعَلَّكُمْ تَذَكَّرْنَ}
{لَعَلَّكُمْ تَعْقِلُونَ}

{لَعَلَّكُمْ تَتَّقُ}

Ya'ni qo'rqishlari uchun aql yuritishlari uchun eslatma olishlari uchun.

Ba'zan o'ylamoq ma'nosida ham keladi:

لَعَلِّي أَرْوُكَ الْيَوْمَ – *Balki men bugun senikiga borarman.*

Bu yerdagi balki o'ylaymanki boraman ma'nosini beradi. Imrul Qaysdan bunga misol:

وَبَدَّلْتُ قَرْحًا دَامِيًا بَعْدَ صِحَّةٍ لَعَلَّ مَنَائِنَا تَحُولَنَّ أَبْوْءُهَا

Sog'ligimdan so'ng menga qonli jarohat keldi balki o'limimiz.

لَعَلَّ yana عسي ma'nosida ham kelishi mumkin:

لَعَلَّكَ أَنْ تَجْتَهِدَ – *Shoyadki tirishqoqlik qilsang.*

2. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi.

Ularning kesimi uch xil ko'rinishda keladi.

1. Bitta so'z bilan ifodalanadi.

كَأَنَّ أَحْمَدَ أَسَدٌ

2. Jumla bo'lib keladi, u ismiy va fe'liy bo'ladi.

a) fe'liy jumla:

إِنَّ الْعِلْمَ يُعَزِّزُ صَاحِبَهُ – *Ilm o'z sohibini kuchaytiradi.*

b) ismiy jumla

إِنَّ الْعَالَمَ قَدْرُهُ مَرْتَفَعٌ – *Olimning qadri balandir.*

3. شِبْهَ جُمْلَةٍ (jumla sifat) bu predlogli birikma hamda o'rin payt yuklamasi bo'lib,

tushib qolgan kesimning o'rnida kesim vazifasida keladi.

إِنَّ الْعَادِلَ تَحْتَ لُؤَاءِ الرَّحْمَنِ، وَإِنَّ الطَّالِمَ فِي زُمرَةِ الشَّيْطَانِ

Bunday hollarda yoki بُوُجُدُ yoki bo'lmasa كَانْ وُجِدَ ma'nosidagi yoki كَانْ وُجِدَ yoki bo'lmasa بُوُجُدُ tarzidagi kesimni o'z ichiga olgan deb e'tirof qilinadi. Ko'rinib turibiki bunday شِبْهَ جُمْلَةٍ larda mustaqil so'z (كان، موجود) va jumla (وجد) va بُوُجُدُ ma'nolarini mujassam etganini sababli شِبْهَ الْجُمْلِ yoki شِبْهَ الْمَفْرُودِ bo'lib keladi.

3. Bu harflarning xabarini tushib qolishi.

Bu harflarning harfi tushib qolishi mumkin. Shunga ko'ra u ikki turga bo'linadi جَائِزٌ. Agar biror aniq so'z ya'ni biror bir aniq ma'noga ega bo'lgan so'z bo'lsa xabarning tushib qolishi joiz bo'ladi. Lekin buning sharti uning aniq dalili bo'lishi kerak. Masalan:

{إِنَّ الَّذِينَ كَفَرُوا بِالَّذِي كَفَرُوا لَمَّا جَاءَهُمْ وَإِنَّهُ لَكِتَابٌ عَزِيزٌ} (فُصِّلَتْ: 41)

Albatta o'zlariga eslatma Qur'on kelgan vaqtda unga kofir bo'lgan kimsalar(qattiq azobga yo'liqurlar).Shak shubxasiz u aziz qudratli kitobdir.

Ya'ni dinni zikr bilan yolg'on gapirganlar halok bo'luvchilardir.Shoirning yozishicha

أَتَوْنِي، فَقَالُوا: يَا جَمِيلُ، تَبَدَّلْتُ بُنْيَنَةً أَبَدَالاً، فَقُلْتُ: لَعَلَّهَا

Mani oldimga kelishdi va aytishdi ey jamil qiz juda ham o'zgarib ketibdi va men aytdim,ehtimol.

Ya'ni balki o'zgargandir yoki ehtimol u shunday bo'lgandir.

Tushib qolishi واجب bo'ldiki qachonki biror bir aniq mavjud bo'lishlikka dalolat qiluvchi so'zlar bo'lsa, lekin ulardan aniq bir hodisa yoki muayyan ish harakat yoki ish harakatni bajaruvchisi yoki hosil qiluvchisi tushinilmaydi.Ular ikki turga bo'linadi:

1. لَيْتَ شِعْرِي qaniydi she'rim.Agar so'roq gapda kelsa. Masalan:

لَيْتَ شِعْرِي هَلْ تَنْهَضُ الْأُمَّةُ؟ وَ لَيْتَ شِعْرِي مَتَى تَنْهَضُ؟

Bunda so'roq gap nasb o'rnida kelgan, chunki u vositasiz to'ldiruvchi.

أَلَا لَيْتَ شِعْرِي كَيْفَ جَادَتْ بِوَصْلِهَا؟ وَ كَيْفَ تُرَاعِي وَصْلَةَ الْمُتَعَيِّبِ

2. Gapda predlogli ot kesim yoki o'rin payt holi kesim vazifasida kelib asl kesim vazifasida kelib asl kesim bo'lish "موجد" ma'nosidagi so'z tushib qolgan bo'ladi. Masalan:

إِنَّ الْعِلْمَ فِي الصُّدُورِ. وَإِنَّ الْخَيْرَ أَمَامَكَ.

Haqiqatdan ilm qalbdadir. Yaxshilik oldingdadir.

4. **إِنَّ ni hozirgi ismdan oldin kelishi ham o'zidan oldin kelishi ham mumkin emas.** Habar vazifasini bajarayotgan so'z esa ya'ni faqatgina predlogli ot kesim yoki o'rin payt holi **إِنَّ** ismidan oldin kelishi mumkin. Masalan:

إِنَّ عِنْدَكَ زَيْدًا مُقِيمٌ – *Haqiqatdan Zayd huzuringda yashovchidir.*

إِنَّ فِي الدَّارِ زَيْدًا – *Haqiqatdan Zayd uydadir.*

O'rin payt holi va predlogli birikma ma'no jihatidan tushib qolgan kesim bilan bog'liq bo'ladi. Biroq bunda kesimni oldin qo'yib bo'lmasligi sabab tushib qolgan xabar ismdan keyin deb faraz qilinadi. Aslida o'rin payt holi yoki predlogli birikma (jar va majrur) ko'pchilik nahv olimlari aytganidek, xabar emas, balki ular xabar vazifasini bajaradi xolos.

Agar predlogli birikma yoki o'rin payt holi bo'lib kelsa xabarni o'rnida keluvchi so'zni birinchi berib yoki oldinga olib qo'yish bo'ladi. Ular ikki qismga bo'linadi.

1. Agar xabar kechikib kelsa unga qaytuvchi olmosh biriktirildi. Masalan:

إِنَّ فِي الدَّارِ صَاحِبَهَا – *Haqiqatdan hovlida uning egasi bor.*

Lekin **صَاحِبَهَا** ni **إِنَّ** dan oldin keltirib bo'lmaydi. Chunki qaytuvchi olmosh **دار** ya'ni hovlini o'zida aks ettirish kerak va u kechikib keluvchi so'z hisoblanadi va shuningdek u tartib bilan kechikuvchi hisoblanadi. Chunki xabarni o'rnida kelayotgan so'z gapning oxirida keladi.

2. Agar ism ta'kid nomi bilan yonma-yon kelsa, Alloh taolo aytgan:

{وَأَنَّ لَنَا لِلْآخِرَةِ وَالْأُولَى} (الليل: 13)

Shak shubxasiz oxirat ham, dunyo ham yolg'iz Biznikidir.

Agar xabar o'rnida kelayotgan so'z ism bilan xabar o'rtasida turgan bo'lsa garchi u payt holi yoki predlogli birikma bo'lsa ham uni xabardan oldin qo'yish mumkin bo'ladi. Masalan:

Birinchisi: **إِنَّكَ** عِنْدَنَا مُقِيمٌ – *Sen bizning oldimizda turibsan.*

Ikkinchisi. **إِنَّكَ** فِي الْمَدْرَسَةِ تَتَعَلَّمُ – *Sen maktabda ta'lim olasan.*

Uchinchisi. **إِنَّ** سَعِيدًا دَرْسَهُ يَكْتُبُ – *Sayid darsini yozayapti.*

Qachonki **إِنَّ** dan keyin payt holi yoki predlogli birikma kelsa uning ismi kechiktiriladi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki u tushim kelishigida keladi. Ko'pincha yozuvchi va so'zlovchilar uni bosh kelishikka qo'yib xato qilishadi. Uni **إِنَّ** xabari deb o'ylashadi aslida u ismi.

إِنَّ عِنْدَكَ لَخَبِيرًا، لَعَلَّ فِي سَفَرِكَ خَيْرًا

Darhaqiqat senda xabar bor.shoyad o'sha safaringda yaxshilik bo'lsa.

5. يُكْلَمُ ta'kid yuklamasi bilan kelishi.

يُنْ ning ismi oldida "ل" ta'kid yuklamasi (لَا يُبْدَأُ deb ham ataladi) kelishi mumkin. Masalan:

يُنْ فِي الْأَرْضِ لَعِبْرًا – *Yerda ibrat bor.*

Bu **يُنْ** ning xabariga ham qo'shilishi mumkin.

يُنْ لِلْخَيْرِ يَفْعَلُ – *U yaxshilik qilyapti.*

يُنْ الْمُجْتَهِدُ لَهُوَ الْفَائِزُ – *Darhaqiqat tirishqoq inson g'olibdir.*

6. Ta'kid **isim bilan kelishi.**

Birinchi. **إن** ismiga ta'kid **لام** ni qo'shish uchun undan so'ng tushirib qoldirilgan fe'lga tegishli bo'lgan payt holi yoki predlogli birikma bo'lishi kerak. Masalan:

إن **لخيرًا عندك** **إن** **دارهاqiqat senda katta yaxshilik bor. Sen yaxshi hulq egasisan.**

Agar undan oldin kelsa ta'kid **لام** bilan ifodalash joiz bo'lmaydi. Ya'ni **إن** **لخيرًا عندك** bunday aytish to'g'ri bo'lmaydi.

Ikkinchisi. Xabarga ta'kid **لام** ning qo'shilishini sharti shundaki u inkor va shart yuklamasi bilan yonma-yon turmasligi va fe'lning **قد** yuklamasi bilan kelmasligi kerak. Agar bulardan birortasi kelsa, bunga ta'kid **لام** ning qo'shilishi mumkin bo'lmaydi. Masalan:

{**إِنِّضْ رَبِّي لَسَمِيعِ الدُّعَاءِ**} (إبراهيم:39)

Albatta, Parvardigorim barcha duolarni eshitguvchidir.

{**وَإِنَّ رَبَّكَ لَيُحْكُمُ**} (النحل:124)

Albatta, Parvardigorimiz qiyomat kunida ularning o'rtasida o'zlari ixtilof qilib o'tgan narsalar to'g'risida hukm qilur.

{**إِنَّا نَحْنُ نُحْيِي الْمَوْتَى**} (يس:12)

Albatta biz o'zimizgina o'liklarni tiriltirurmiz.

إن ning xabari ta'kid **لام** bilan birga kelishining shartlari to'liq bo'lsa, u bilan ifodalanishi mumkin. Masalan:

إنَّ الحقَّ لمنصورٌ – *Haqiqat doim g'olibdir.*

Yoki ismiy jumla bo'lishi:

إنَّ الحقَّ لصَوْتُهُ مرتفعٌ – *Haqiqatdan ovozi balandir.*

Hozirgi kelasi zamon jumla bilan ham

إنَّ رَبَّكَ لَيَحْكُمُ بَيْنَهُمْ – *Darhaqiqat Robing ular o'rtasida hukm chiqaradi.*

Yoki o'tgan zamon qotib qolgan fe'l bilan kelishi:

إِنَّكَ لَنِعْمَ الرَّحْلُ – *Sen qanday yaxshi insonsan.*

Yoki yuklamasi bilan kelishi mumkin:

إنَّ الفَرْجَ لَقَدْ دَنَا – *Bemalolchilik yaqinlashdi.*

Agar xabar tushib qolsa ta'kid **لام** ni ana shu xabarga tegishli bo'lgan payt holi yoki predlogli birikma qo'shib qolishi mumkin:

إِنَّ أَخَاكَ لَعِنْدِي – *Akang yonimda.*

{**وَإِنَّكَ لَعَلِّي خُلِقَ عَظِيمٌ**} (القلم:4)

Albatta siz ulug' hulq ustidadirsiz

Uchinchi. Xabarning to'ldiruvchisiga ta'kid “**و**” ning kirishi uchun ikki shart bor.

1. U ism va fe'lning o'rtasida kelishi kerak.

2. Xabar ta'kid **لام** qabul qilishiga yaroqli bo'lgan bo'lishi kerak.

إِنَّ سَلِيمًا لَفِي حَاجَتِكَ سَاعٌ

Salim sening hojating tushgan ishda hozir urinib yuribdi.

وَإِنَّهُ لَيَوْمَ الْجُمُعَةِ آتٍ

U juma kuni keluvchidir va buyrug'inga bo'ysunuvchidir.

وَإِنَّهُ لَأَمْرٌ يُطِيعُ

To'rtinchi. Ajratuvchi olmosh esa “**و**” ta'kid yuklamasini olish uchun hech narsa shart qilinmaydi. Masalan:

{**إِنَّ هَذَا لَهُوَ الْقَصَصُ الْحَقُّ**} (ال عمران:69)

Albatta bu haq rost qissadir.

Ajratuvchi olmosh muftado va xabar o'rtasida yoki asl muftado va xabar bo'lgan ikki so'z orasida kelib, xabarning sifat emasligini bildirish uchun qo'llaniladi. U muftadoning xabar bilan sifatlanishini ta'kidlanishini bildiradi. U garchan kishilik olmoshi ko'rinishida kelgan bo'lsada, nahvchilarning fikriga ko'ra sintaktik jihatdan biror kelishikda hisoblanmaydi.

7. **لام ل الابتداء uch o'rinda keladi (so'z boshida qo'shiluvchi "U").**

1. Muftadoga qo'shiladi va u ikki xil bo'ladi:

1. Muftadoga kirib, muftado xabardan oldin keladi.

{لَأَنْتُمْ أَشَدُّ رَهْبَةً فِي صُدُورِهِمْ} (الحشر: 13)

Aniqki, sizlar dillarida Allohdan ko'ra qo'rqinchliroqdirsizlar.

Agar xabardan keyin kelsa muftado لام ga qo'shilmaydi.

bo'lmaydi. *Zayd turmaydi.*

2. Xabarga uning muftadodan oldin kelishi shart bilan xabarga qo'shiladi. Masalan:

لَمْجْتَهْدُ أَنْتَ – *Sen tirishqoqsan.*

Agar xabar muftadodan keyin kelsa لام qo'shilmaydi.

2. **إِنَّ** ning xabardan keyin kelgan ismiga kiradi va xabariga kiradi. **كَانَ** ning ismi hozir kelasi zamon fe'li o'tgan zamon **حَامِدٌ** fe'li yoki **قَدْ** bilan kelgan o'tgan zamon fe'li yoki ismiy jumla tarzida kelgan **إِنَّ** ning xabariga qo'shilishi mumkin. Shuningdek xabar vazifasida kelgan **ظَرْفٌ** hamda predlogli birikmaga qo'shilishi mumkin. Bu haqda yuqorida ko'rib chiqdik.

3. Yuqoridagi ikki holatdan tashqari bunda uch xil ko'rinish mavjud:

1. Kelasi zamon fe'liga.

{لَيَقُولَنَّ كَرِيمٌ مَا يُرِيدُ} – *Karim xohlaganini aytadi.*

2. **خَامِدٌ** fe'liga qo'shiladi.

{لَيَبْسَنَنَّ مَا كَانُوا يَصْنَعُونَ} (المائدة: 63)

Qilayotgan hunarlari qanday ham yomon-a!

3. **قَدْ** bilan kelgan o'tgan zamon fe'li.

{لَقَدْ كَانَ فِي يُوسُفَ وَإِخْوَتِهِ آيَاتٌ لِلْمُتَلَكِّينَ} (يوسف: 7)

Batahqiq, Yusuf va uning og'a- inilarida so'raguvchilar uchun oyat-ibratlar bor edi.

8. **إِنَّ وَاخْوَتَهَا ga "ما" ning qo'shilishi.**

qo'shilganda ular ega tushum kelishigida kelmaydi. Undan keyin kelgan **إِنَّ** ning ismi va xabar muftado va xabar deb nomlanadi va bular "ما الكفة" deb nomlanadi. Masalan:

{إِنَّمَا إِلَهُكُمُ إِلَهٌ وَاحِدٌ} (الكهف: 110)

Ollohning o'zi ekani vahiy etilmoqda.

Yoki **لَعَلَّهَا** الله يرحمنا – *Shoyadki Olloh bizga rahm qilsa.*

Biroq **لَيْتَ** ga "ما" qo'shilgach u muftadoga ta'sir qilishi ham qilmasligi ham mumkin.

لَيْتَهَا الشَّبَابُ يَعُودُ – *Koshkiydi yoshlik qaytsa.*

Uning muftadoga ta'sir qilishi durustroq deb qaraladi.

ga "ما" qo'shilgach u nafaqat ismlarga balki fe'lga ham qo'shilishi mumkin bo'ladi. Faqat **لَيْتَ** dan boshqa. Masalan:

{كَأَنَّمَا يُسَاقُونَ إِلَى الْمَوْتِ} (الأنفال: 6)

Ular go'yo ko'rib turgan hollarida o'limga haydab ketilayotgandek.

Ushbu yuklamalarga qo'shilayotgan "ما" nisbiy olmosh bo'lsa yoki masdarni bildiruvchi "ما" bo'lsa yuklamalarni egaga ta'sir qilish kuchi saqlanib qoladi. Bunda nisbiy olmosh "ما" **إِنَّ** ning ismi hisoblanadi.

{ إِنَّمَا تُوْعَدُونَ لَوَقْعِ } (المُرْسَلَات:7)

Hech shak shubhasiz sizlarga va'da qilinayotgan narsa voqea bo'lguvchidir.

إِنَّ الَّذِي تُوْعَدُونَ لَوَقْعِ

Sizlarga va'da qilinayotgan narsa albatta sodir bo'lguvchidir.

Bu yerda “مَا” nisbiy olmoshi tushim kelishigida hisoblanadi *إِنَّ* esa *لَوَقْعِ* ning xabari va u bosh kelishikda turibdi.

9. Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalardan keyin uyushib kelgan ega tushim kelishigida keladi. Bunda uyushgan egalar ketma-ketligi orasida xabar keladimi yo'qmi yuklamaning ta'siri hisoblanadi. Masalan:

Sayid va Holid musofirdirlar. – إِنَّ سَعِيدًا وَ خَالِدًا مُسَافِرَانِ

Sayid musofirdir Holid ham. – لِإِنَّ سَعِيدًا مُسَافِرٌ وَ خَالِدًا

Ba'zan bog'lovchidan keyin kelgan ega bosh kelishikda keladi. Bunda ikkinchi egadan oldin kesim kelgan bo'lib, bosh kelishigidagi ikkinchi eganing kesimi tushib qolgan deb hisoblanadi. Bu faqat *إِنَّ*, *أَنَّ*, *وَلَكِنْ* da kuzatiladi. Masalan:

إِنَّ سَعِيدًا مُسَافِرٌ وَ خَالِدٌ

فَمَنْ يَكُ لَمْ يُنْجِبْ أَبُوهُ وَأُمُّهُ

فَإِنَّ لَنَا أُمَّ النَّجْبِيَّةِ

Agar uning ota onasi farzand ko'rmasa, Bizning bordir onamiz va otamiz.

وَلَنَا أَبُو النَّجْبِيِّ أَيْضًا

go'yoki shu ma'noni anglatgan.

أَنَّ ga misol

{ وَ أَذُنٌ مِنَ اللَّهِ وَرَسُولِهِ إِلَى النَّاسِ يَوْمَ الْحَجِّ الْأَكْبَرِ أَنَّ اللَّهَ بَرِيءٌ مِنَ الْمُشْرِكِينَ وَرَسُولُهُ }

(التوبة:3)

Olloh va uning Payg'ambari tomonidan odamlarga katta haj kunida Olloh va uning Payg'ambari mushriklardan bezor ekanligini bildirishdir.

Ba'zan bog'lovchidan keyin kelgan ikkinchi ism bir ma'noni anglatish uchun bosh kelishikda keladi. Bu yerda *أَنَّ* ning ismi va xabari o'rtasiga tushgan xabari, tushib qolgan egadan iborat jumlagi aylanib qoladi. Masalan:

فَمَنْ يَكُ أَمْسَى بِالْمَدِينَةِ رَحْلُهُ فَإِنِّي، وَ قَيَّارٌ بِهَا لَغَرِيبٌ

Kimning ham bu karvoni bu shaharda tunardi men, qair ham (otining ismi) bu erda begonaman.

Ushbu baytning ikkinchi qismida *إِنَّ* dan keyin uning ismi *أَنَا* kelgan xabari bo'lmish *لَغَرِيبٌ* bilan uning o'rtasida jumla tushgan. Ushbu jumlada muftado *قَيَّارٌ* xabar esa *قَيَّارٌ* tarzda berilishi mumkin edi. O'shanda *قَيَّارٌ* (بها ايضاً) *عَرِيبٌ* Ushbu jumla *فَإِنِّي وَ قَيَّارًا بِهَا لَغَرِيبَانِ* so'zi *إِنَّ* ning ikkinchi ismi bo'lardi.

Lekin uning bosh kelishikda kelishi va alohida jumla sifatida ifodalanishidan maqsad gapdagi mazmunni ta'kidlash kuchaytirishdir. Bu yerda *قَيَّارٌ* ismi otning o'sha shaharda begona ekanini alohida bildirib o'tishni shoir ifoda qilgan.

Agar gap *فَإِنِّي وَ قَيَّارًا بِهَا لَغَرِيبَانِ* dagidek berilganda edi begonalik oldida “men” va *قَيَّارٌ* bir xil maqomda bo'lardi. Masalan:

إِنَّ الَّذِينَ ءَامَنُوا وَ الَّذِينَ هَادُوا وَ الصَّبِيَّوْنَ وَ النَّصْرَى مِنْ أَمَنِ بِاللَّهِ وَ الْيَوْمِ الْآخِرِ وَ عَمِلَ صَالِحًا فَلَا خَوْفٌ عَلَيْهِمْ وَ لَا هُمْ

يَحْزَنُونَ (المائد:29)

Albatta iymon keltirgan zotlar yahudiy bo'lganlar, sabiylar (farishtalarga sig'inuvchilar) va nasroniylar (ulardan) qaysilari (iymonga kelib) Ollohgga, oxirat kuniga ishonsa va yaxshi amallar qilsa, o'shalar uchun havfu xatar, g'am anduh yo'qdir.

Ushbu oyatda esa إِنَّ ning ismi va xabari o'rtasidagi bosh kelishikdagi وَالصَّيُّونَ muftado xabari esa tushib qolgan. كُنَّا jumlagina mavjud. Bu yerda صَيُّونَ ni ajratib yozishdan maqsad ularga ham islom hukmi boshqa dindoshlarga kabi bir xil ekan ulardan ham tavba qabul qilinishidan gumonda bo'lganlarning gumonini keltirish uchun ajratib berilgan.

كاسرالي إِنَّ va fathali أَنْ

Masdar o'rnida kelishi mumkin bo'lgan hollarda إِنَّ ning hamzasi kasra holatda bo'lishi mumkin. أَنْ ning hamzasi quyidagi hollarda kasra holatida bo'lishi mumkin:

1) إِنَّ ning o'rnida yoki uning xabarini o'rnida مصدر kelishi zarur bo'lsa إِنَّ ning hamzasi "fatha"li bo'ladi.

2) ikkita holat ham mos kelsa fatha va kasra qo'shish mumkin bo'ladi.

Gapning tarkibini o'zgartirishga to'g'ri kelgan holda إِنَّ dan keyin kelgan gap bo'lagini masdari bosh kelishik bilan izohlash mumkin. Masalan:

يُعْجِبُنِي إِنَّكَ مُجْتَهِدٌ – *Tirishqoq ekaning menga yoqadi.*

Jumlasidagi gap tarkibi يُعْجِبُنِي إجتَهَادُكَ ga o'zgarishi mumkin.

يُعْجِبُنِي إِنَّكَ مُجْتَهِدٌ – *Sening tirishqoqliging menga ma'qul keladi.*

Agar إِنَّ dan keyingi jumlaning masdar yordamida o'zgartirish va ma'noga nuqson yetkazsa u jumla o'zgarimasdan keladi. Bunday holatda إِنَّ (kasrali) ishlatiladi. Masalan:

إِنَّ اللَّهَ رَحِيمٌ – *Haqiqatdan Olloh rahmdildir* so'zidan ko'ra,

رَحْمَةُ اللَّهِ – *Ollohning rahmati* deyish kuchliroq.

Agar إِنَّ dan keyingi jumlaning masdar bilan ifodalash mumkin bo'lsa yuklama ikki ko'rinishda kelishi ham mumkin.

أَحْسَنَ إِلَيَّ، هُوَ سَخِي. – *Aliga yaxshilik qil u sahiydir.*

Bunda إِنَّ ikkinchi jumlaning boshida kelgan hisoblanadi.

2. إِنَّهُ كَرِيمٌ bu erda sababni ifodalovchi لِ ma'nosida kelgan, ya'ni

أَحْسَنَ إِلَيْهِ لِكَرَمِهِ

mana shunday o'rinlarda إِنَّ bilan ishlatish to'g'riroq va u ko'proq uchraydi.

"لِأَنَّ" bog'lovchisiga ham birikma olmoshlar birikadi:

لِأَنَّنِي، لِأَنَّكَ، لِأَنَّهُ

Biz shunga kelishdikki, aslida bu yuklamalar ismni (egani) tushum kelishigida keltirmaydi, ular faqatgina fe'lga o'xshaganliklari uchun ismni tushum kelishigida keltiradi. Demak, agar ular ismga ta'sir qiladigan bo'lsa, bu ularning fe'lga o'xshashligi sababidandir, ya'ni ular fe'lning bir ko'rinishi, bir bo'lagidir. Agar ularni shunday desak, ular fe'ldan zaifroq bo'lishi kerak. Chunki har bir narsaning bir bo'lagi uning asliga nisbatan zaifroq bo'lishi kerak. Shu bo'laklar bilan uning aslini bir biriga qiyoslasak, yuklamaning kesimga ta'siri bo'lmasligi kerak. Agar biz bo'lak (فَرْع) ga butun (أَصْل) ning vazifasini yuklasak, bu ularning ikkalasini bir biriga teng narsa deyishga olib keladi. Bu esa mumkin emas, kesimning o'zi yuklama kelmasdan oldin bosh kelishikda bo'lgan.

Ular fe'lga o'xshar ekan, demak, ular ham fe'l bajaradigan vazifani bajarishi kerak.

Jumlada fe'lning bosh kelishikdagi ismi (egasi) va tushum kelishikdagi ismi (to'ldiruvchi) bo'lganidek, bu yuklamalarning ham bosh kelishikdagi va tushum kelishikdagi ismi bo'lishi kerak. Faqatgina yuklama kelgan gapda tushum kelishikdagi ism bosh kelishikdagi ismdan oldingi qo'yiladi.

Chunki bu yuklamalar ham shakl, ham ma'no jihatdan fe'llarga o'xshaganligi sababli fe'lga o'xshagan yuklamalar bilan fe'lni ajratish uchun ham tushum kelishikdagi ismdan oldin kelishi shartdir. Ularning zamonlarga ajratilmasligi ularning yuklama ekanligi sababidan emas. Chunki arab tilida نَعَمْ، بَلَى، عَسَى، لَيْسَ kabi zamonlarda tuslanmaydigan fe'llar ham bordir.

Bu yuklamalar ishtirok etgan gapning kesimi ulardan (o'zidan) oldin yoki o'sha yuklamalarning egasidan oldin kelishi joiz emas. Biroq kesimga ta'sir qiluvchi omil bo'lsa, ya'ni ravish yoki predlog bilan qaratqich kelishigida turgan ism bo'lsa, u holda kesim egadan oldin keladi. Masalan:

إنَّ عندَكَ زَيْدًا مَقِيمٌ – *Darhaqiqat, Zayd sening oldingda (qoshingda) turibti.*

Ravish yoki predlogli qaratqich kelishigidagi ismga taalluqli kesim tushib qolgan bo'lsa, u holda bunday birikma egadan oldin keladi. Misol:

إنَّ فِي الدَّارِ زَيْدًا *Darhaqiqat, uyda Zayd bor*

XULOSA

Ushbu maqola arab tilidagi “inna va axovātuha” harflarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, “inna va axovātuha” harflari otni nasb holatiga keltiruvchi, jumlada turli mantiqiy ma'nolarni (ta'kid, istak, taxmin, umid va boshqalar) ifodalovchi muhim nahviy vositalardan ekanligini taqdim etdi. Tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko'rsatdiki, “inna va axovātuha” harflarining ishlatilishi arab tili stilistikasida muhim ahamiyatga ega. Jumladagi ta'kid, taxmin, istak yoki umid ifodalarini bildirish uchun aynan ushbu harflardan foydalaniladi. Arab tilini o'rganuvchilar bu harflarning ishlatilishini o'rganmasdan to'liq jumla tuzishni o'zlashtira olmaydi. Shuningdek, bu harflarning boshqa sintaktik birliklar bilan qanday o'zaro ta'sirlashuvi, matnda qanday mantiqiy urg'u hosil qilishi ham chuqur grammatik anglashni talab qiladi. Arab tilidagi “inna va axovātuha” harflarining to'g'ri ishlatilishi arab tilidagi fikr ifodasining aniqqligi va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasini. – T: 2001.
2. Shayx Muhammad Sodiq. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini. 7-Juz. – T: 2008
3. Ibragimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I jild. – N: Ibrat, 2009
4. Hasanov M, Abzalova M. Arab tili darslari. – T: 2016.
5. Talabov E. Arab tili. – T: 1993.
6. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: 1998.
7. Кавалев А. А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. – М: 1998.
8. Кузьмин С. А. Учебник арабского языка. – М: 2001.
9. Халидов Б. З. Учебник арабского языка. – Т: 1981.
10. القرآن الكريم. مجمع الملك فهد لطباعة المصحف الشريف. المملكة العربية السعودية-١٤٠٣ هـ.
11. مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. دار الغد الجديد-القاهرة-٢٠٠٧.
12. حفنى ناصف، محمد دياب، مصطفى طوموم، محمد صالح. الدروس النحوية. دار التوفيقية- القاهرة-٢٠٠٩.
13. خالد : محذوف وخبر همبتدا، والتقدير : أيضاً مسافر وخالد
14. www.arabic.uz
15. www.ziyo.uz